



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Raximov Ilyos Ikramovich

Toshkent arxitektura – qurilish universiteti

ORCID: 0009-0000-7334-0821

i.raximov@uzsm.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida qurilish materiallari sanoatining so'nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Mavjud statistik ma'lumotlar, amaliy islohotlar va sohaga oid ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqarish hajmlaridagi o'sish, texnologik imkoniyatlar, investitsiya muhiti va eksport salohiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, sohadagi mavjud muammolar – xom ashyo ta'minoti, texnologik ortda qolish, mahsulot sifati va standartlash muammolari tanqidiy tahlil etilgan. Sohaning kelgusi rivojlanishi uchun strategik yo'nalishlar, amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari, sanoat, ishlab chiqarish, sement, xom ashyo, texnologik modernizatsiya, import, eksport salohiyati, klaster, investitsiya, rivojlanish tendensiyasi.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Рахимов Ильяс Икрамович

*Ташкентский архитектурно-
строительный университет*

Аннотация. В данной статье проанализированы тенденции развития промышленности строительных материалов в Республике Узбекистан за последние годы. На основе имеющихся статистических данных, практических реформ и отраслевых научных исследований были рассмотрены рост производства, технологические возможности, инвестиционный климат и экспортный потенциал. Также критически проанализированы существующие проблемы отрасли – проблемы поставок сырья, технологического отставания, качества продукции и стандартизации. Разработаны стратегические направления, практические предложения и рекомендации по дальнейшему развитию отрасли.

Ключевые слова: строительные материалы, промышленность, производство, цемент, сырье, технологическая модернизация, импорт, экспортный потенциал, кластер, инвестиции, тенденция к развитию.

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE BUILDING MATERIALS INDUSTRY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Rakhimov Ilyas Ikramovich

Tashkent University of architecture and construction

Annotation. *This article analyzes the development trends of the construction materials industry in the Republic of Uzbekistan in recent years. Based on the available statistics, practical reforms and scientific research on the industry, the growth in production volumes, technological opportunities, investment environment and export potential were considered. There is also a critical analysis of the existing problems in the industry – the supply of raw materials, technological lag, product quality and standardization problems. Strategic directions, practical proposals and recommendations have been developed for the future development of the industry.*

Keywords: *building materials, industry, production, cement, raw materials, technological modernization, import, export potential, cluster, investment. Development trend.*

Kirish.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri – sanoatni diversifikatsiya qilish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirish hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishishda qurilish sohasi va, ayniqsa, qurilish materiallari sanoati muhim o'rin tutadi. Chunki har qanday iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayoni, ayniqsa infratuzilmani kengaytirish, turar joylar, ta'lim va tibbiyot muassasalarini barpo etish qurilish sohasiga va, shunga mos ravishda, qurilish materiallariga bo'lgan talabni oshiradi.

So'nggi yillarda mamlakatda qurilish ishlari sezilarli darajada faollashdi. Yirik shaharlardagi urbanizatsiya jarayonlari, viloyat markazlarida yangi uy-joy massivlarining qurilishi, strategik sanoat hududlari va logistika markazlarini barpo etish kabi loyihalar bu tendensiyaning yanada kuchaytirdi. Bunda qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ining rivojlanishi nafaqat qurilish sohasini resurs bilan ta'minlash, balki iqtisodiyotda multiplikativ ta'sir ko'rsatadigan soha sifatida ko'riladi. Masalan, ushbu sanoatda yaratilgan ish o'rinlari, xom ashyoni qayta ishlash, logistika va eksport imkoniyatlari orqali butun iqtisodiy tizimga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatidagi islohotlar strategik tarzda amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son farmoniga muvofiq, 48-maqсад: Sanoatning «drayver» sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish maqsadida, 2030 yilgacha qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish dasturiga ko'ra: Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarni ishlab chiqarishni kengaytirish; energiya tejamkor qurilish materiallari, gulgog'ozlar ishlab chiqarishni 3,5 barobarga, keramik plitalar, qurilish oynasini - 2-2,5 barobarga oshirish; barcha ishlab chiqarish quvvatlarini energiya tejamkor va muqobil energiya turlariga o'tkazish (Qaror, 2023).

Qolaversa, mamlakatda sement, gips, shifer, keramika, plastik, gazobeton va boshqa turdagi qurilish materiallariga bo'lgan talab yildan-yilga oshib bormoqda. Bunday sharoitda mahalliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish, yangi quvvatlarni ishga tushirish va ishlab chiqarishni geografik jihatdan barqaror taqsimlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ushbu maqolada qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalari, sohadagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari ilmiy tahlil etiladi.

Mamlakatdagi qurilish ishlari hajmining yil sayin o'sishi sohaga bo'lgan talabni doimiy ravishda oshirmoqda. 2017–2024 yillar davomida yurtimizda har yili o'rtacha 40–50 mingdan ziyod yangi turar joy binolari qurilib, infratuzilma ob'ektlari, yo'llar, maktab va shifoxonalar,

sanoat korxonalari barpo etildi. Bunday keng ko'lamli qurilish ishlarini uzluksiz qurilish materiallari bilan ta'minlash mamlakatning strategik vazifalaridan biriga aylandi. Bu esa mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini ko'paytirish, zamonaviy korxonalar tashkil etishni talab qilmoqda.

Ikkinchidan, qurilish materiallari sanoati mamlakat iqtisodiyotida yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan va eksport salohiyatiga ega sohalardan biriga aylanishi mumkin. Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud raqobat sharoitida O'zbekistondagi resurs bazasi, ishchi kuchining raqobatbardoshligi va logistika infratuzilmasining bosqichma-bosqich yaxshilanishi mamlakatni qurilish materiallarini eksport qiluvchi muhim hududiy markazga aylantirish imkoniyatini beradi. Ayni paytda, sement, shifer, gultosh, keramika plitkalari va gips mahsulotlari Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Afg'oniston kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda, lekin bu hali salohiyatga to'liq javob bermaydi. Demak, mavzuning dolzarbligi – eksport salohiyatini ochish va tashqi bozorlardagi mavqeni mustahkamlash masalalarida ham o'z aksini topadi.

Uchinchidan, qurilish materiallari sanoatida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyotida energiya tejamkor, ekologik toza, yengil va tez o'rnatiladigan qurilish materiallariga bo'lgan talab oshib bormoqda. O'zbekistonda ham ushbu tendensiyaning hisobga olgan holda yangi turdagi materiallar – gazobeton, sendvich-panellar, poliuretan asosidagi izolyatsiya mahsulotlari, modulli tizimlar va boshqalarni ishlab chiqarish va keng joriy etish dolzarb vazifaga aylandi. Bu nafaqat qurilish sifatini oshiradi, balki uning muddatlarini qisqartiradi, xarajatlarni kamaytiradi va eng muhimi – atrof-muhitga ta'sirni kamaytiradi.

To'rtinchidan, soha mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish va aholi bandligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Joylarda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kichik va o'rta korxonalarni tashkil etish orqali nafaqat mahalliy iqtisodiyot faollashadi, balki aholi daromadlari ham oshadi. Bu joylardagi tabiiy xom ashyo zaxiralaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish imkoniyatini ham beradi.

Beshinchidan, qurilish materiallari sanoati rivoji boshqa tarmoqlarning ham rivojlanishiga turtki beradi. Masalan, kimyo sanoati (plastik, boyoq, suv izolyatsiyasi), mashinasozlik (qurilish texnikasi va jihozlari), energetika (ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlovchi manbalar) va transport (tashish va logistika) sohalari bilan uzviy bog'liq. Demak, ushbu sanoatning o'sishi multiplikativ ta'sir orqali butun iqtisodiyotda ijobiy dinamika yaratishi mumkin.

Qurilish materiallari sanoatining rivojlanish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, texnologik va ekologiyaviy nuqtai nazardan ham o'z vaqtida va juda dolzarbdir.

Adabiyotlar sharhi.

Qurilish materiallari sanoatining rivojlanishini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar so'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarining faollashuvi bilan yanada dolzarblik kasb etdi. Ilmiy adabiyotlarda bu sohaga oid tahlillar, asosan, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, eksport salohiyatini oshirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish nuqtai nazaridan muhokama qilingan.

Nazarov (2022) o'zining «O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatining rivojlanish masalalari» nomli ilmiy maqolasida sohadagi asosiy muammolar sifatida texnologik ortda qolish, ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejamkor texnologiyalarning yetishmasligi va ichki bozordagi talabni to'liq qondirmaslik holatlarini ko'rsatadi. Uning fikricha, mahalliy xom ashyo resurslari yetarlicha bo'lsa-da, ularni chuqur qayta ishlash darajasi past bo'lib, bu qurilish materiallari sifatining raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Shuningdek, Rahimovning (2021) tadqiqotida ta'kidlanishicha, qurilish materiallari sanoatida davlat siyosati uzoq muddatli strategiya asosida yuritilmayotgani, sohada xususiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagani va mintaqaviy notengliklar

saqlanib qolayotgani soha o'sishini sekinlashtiruvchi omillardan hisoblanadi. Uning fikricha, korxonalar o'rtasida kooperatsiyaning past darajada ekani va eksport bozorlariga chiqishda marketing yechimlarining kamligi ham tizimli yondashuv talab qiladi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) 2023 yilda chop etgan tahliliy hisobotida mamlakatdagi sement sanoati rivojiga alohida e'tibor qaratilgan. Hisobotda qayd etilishicha, 2020–2023 yillarda O'zbekistonda sement ishlab chiqarish hajmi 1,5 barobarga oshgan bo'lsa-da, xom ashyo importiga bog'liqlik kamaymagan. Xususan, klinker xom ashyosi hali ham turli hollarda Xitoy, Qozog'iston va Erondan import qilinayotgani ko'rsatib o'tilgan (ITIM, 2023). Bu holat mamlakatning xom ashyoga bo'lgan ichki ehtiyojini qoplash borasida yetarli ish olib borilmayotganini ko'rsatadi.

Tanqidiy yondashuv nuqtai nazaridan, ba'zi tadqiqotlarda hukumat tomonidan qabul qilingan dastur va strategiyalarning amaliy ijrosida kechikishlar, loyihalarni moliyalashtirishda shaffoflikning yetishmasligi va innovatsiyalarga sarmoya kiritishda xususiy sektorning sustligi qayd etilgan. Karimova (2020) o'zining tadqiqotlarida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning aksariyati texnologik jihatdan eski uskunalarga asoslanganini, bu esa mahsulot tannarxini oshirayotganini va eksportboplikni cheklayotganini tanqidiy tahlil qilgan.

Shu bilan birga, xalqaro tajribalarga asoslangan tahlillar ham mavjud. Jahon banki (World Bank) (2023) tomonidan tayyorlangan «Uzbekistan Country Economic Update» hisobotida qayd etilishicha, mamlakat sanoatida, jumladan, qurilish materiallari sohasida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish modelini shakllantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni standartlash va sertifikatlash tizimi orqali xalqaro bozor talablariga moslashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Qurilish materiallari sanoati bo'yicha tadqiqotlar orasida Abdurahmonov (2019) tomonidan ilgari surilgan yondashuv alohida e'tiborga molik. U o'z tadqiqotida O'zbekistonda mahalliy xom ashyo bazasi mavjud bo'lgan holda, sohada hali ham import mahsulotlarga qaramlik mavjudligini tanqidiy baholaydi. Uning fikricha, ichki bozorda mahsulot turlari va sifat bo'yicha notenglik saqlanib qolmoqda. Shu sababli, mintaqalar kesimida ixtisoslashgan ishlab chiqarish tizimini joriy etish orqali mahsulot turlarini optimal taqsimlashni taklif qiladi.

Xojiboev (2020) tomonidan qurilish materiallari sanoatini modernizatsiya qilishda klaster yondashuvni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotiga ko'ra, sement, gips, qumtosh va shifer ishlab chiqarish klasterlarini xom ashyo manbalari yaqinida joylashtirish orqali logistika xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish zanjirini qisqartirish va samaradorlikni oshirish mumkin. U, shuningdek, sohada mahalliy va xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan innovatsion hamkorlik mexanizmlarini joriy etishni zarur deb biladi.

Isroilova (2021) esa qurilish materiallari sanoatining eksport salohiyatiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, so'nggi yillarda eksport hajmlari oshganiga qaramay, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik past. Bu esa mahsulot sifatining standartlarga to'liq mos kelmasligi, sertifikatlash tizimidagi kamchiliklar va marketing instrumentlarining yetishmasligi bilan bog'liq. U yechim sifatida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun eksportga yo'naltirilgan maxsus dasturlarni joriy etishni taklif qiladi.

Shuningdek, Qurbonov (2022) tomonidan qurilish materiallari sohasini raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratadi. U ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan – ya'ni, sanoat 4.0 platformalari, «aqlli logistika» tizimlari va ma'lumotlarga asoslangan ishlab chiqarish rejalashtirish metodlarini joriy etishni jadallashtirishni zarur deb hisoblaydi. Uning tahliliga ko'ra, bu yondashuv tannarxni pasaytiradi, sifatni oshiradi va ta'minot zanjirida shaffoflikni ta'minlaydi.

Ayrim tadqiqotlarda qurilish materiallari sanoatining ekologiyaga ta'siri ham tanqidiy baholangan. Jumladan, Toshmatova (2021) tomonidan qurilish materiallari ishlab chiqarishda karbon gazlari chiqindisini kamaytirishga qaratilgan «yashil texnologiyalar»ni joriy etish bo'yicha davlat darajasida normalar va rag'batlantirish mexanizmlari yetarlicha ishlab

chiqilmaganini ta'kidlaydi. Uningcha, ekologik xavfsizlikni ta'minlamasdan sohani rivojlantirish uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o'sishga xalaqit beradi.

Umumiy qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, qurilish materiallari sanoatining rivojlanishida nazariy va amaliy yechimlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlar eksportini kengaytirish, sohani raqamlashtirish va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish kabi masalalar yetarlicha qamrab olinmagan. Demak, ushbu sohadagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, tahliliy modeli va sohaga xos indikatorlar asosida prognoz qilish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbekiston Respublikasida qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalari bo'yicha qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qurilish materiallari sanoati har qanday mamlakat iqtisodiyotida bazaviy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Unga bo'lgan talab mamlakatdagi qurilish ishlari hajmi, urbanizatsiya darajasi, demografik o'sish sur'ati, investitsiyaviy faollik va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmaviy islohotlar bilan bevosita bog'liq. O'zbekistonda bu omillar keskin faollashgani tufayli, qurilish materiallari sanoati bugungi kunda jadal rivojlanish bosqichida turibdi. Shu jihatdan mavzunung dolzarbligi nafaqat nazariy, balki amaliy nuqtai nazardan ham alohida ahamiyatga ega.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillarda sement ishlab chiqarish va import qilish ko'rsatkichlari

№	Yillar	Sement ishlab chiqarish (mln. tonna)	Sement importi (mln. tonna)
1	2020	9,2	2,5
2	2021	10,5	2,2
3	2022	13,1	1,7
4	2023	14,8	1,2
5	2024	15,6	1,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentli va "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi ma'lumotlari.

So'nggi besh yil mobaynida O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatida jadal o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Buni quyidagi ikki asosiy ko'rsatkich orqali tahlil qilish mumkin. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sement ishlab chiqarish 2020 yildan 2024 yilgacha 69% ga o'sgan. Import hajmi esa deyarli ikki barobar kamaygan. Bu o'zgarishlar mahalliy ishlab chiqarish salohiyatining o'sganini va ichki talabni qisman qoplash imkoniyati oshganini ko'rsatadi. Ammo, hanuzgacha 1 mln tonna sement importi saqlanib turishi - sohadagi xom ashyo ta'minoti, sifat standarti yoki ishlab chiqarishdagi tannarx muammolarini anglatishi mumkin.

2-jadval

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni va quvvati

№	Yillar	Korxonalar soni	Ishlab chiqarish quvvati
1	2020	420	3800
2	2021	475	4600
3	2022	520	5100
4	2023	570	5900
5	2024	620	6700

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentli va "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi ma'lumotlari.

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonalar soni 2020 yildan 2024 yilgacha 48% ga oshgan. Bu sohaga investitsiyalarning kiritilayotganini, yangi bozor ishtirokchilari paydo bo'layotganini anglatadi. Ishlab chiqarish quvvati ham 70% ga o'sgani, salohiyat rivojlanib borayotganini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak:

-raqamlar ijobiy tendensiyani ko'rsatsa-da, sifat va energiya samaradorligi borasida aniq ma'lumotlar mavjud emas.

-raqobat muhitining qay darajada shakllangani noma'lum - bu esa sifat va narx siyosatiga ta'sir qiluvchi omillardan biridir.

-xususiy sektorning ustunligi ortayotganiga qaramay, moliyaviy qiyinchiliklar, bank kreditlariga yetarlicha yetib borolmaslik kabi muammolar hali ham saqlanib qolmoqda.

So'nggi besh yilda qurilish materiallari sanoatida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ammo ushbu o'sishni strategik rivojlanishga aylantirish uchun: yuqori texnologik uskunalarni joriy etish; ekologiyaga ta'sirni kamaytirish; eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish; klasterlar va logistika zanjirlarini takomillashtirish kabi ustuvor vazifalar hal etilishi lozim.

Xulosa va takliflar.

Qurilish materiallari sanoati – O'zbekiston iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan biri sifatida rivojlanib bormoqda. 2020-2024 yillar mobaynidagi statistik tahlillar, sohadagi islohotlar va amalga oshirilgan chora-tadbirlar qurilish materiallariga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq holda ishlab chiqarish hajmining o'sishiga olib kelganini ko'rsatadi. Xususan, sement ishlab chiqarish hajmining 69% ga o'sishi, korxonalar sonining 48% ga ko'payishi va ishlab chiqarish quvvatidagi 76% li o'sish yuqori dinamik rivojlanishdan darak beradi.

Biroq, bu o'sish ko'rsatkichlari soha rivojining to'liq muvaffaqiyatini kafolatlamaydi. Tahlillar va olimlar fikri shuni ko'rsatadiki, sohadagi barqaror rivojlanishga xalaqit berayotgan qator tizimli va institutsional muammolar hanuz saqlanib qolmoqda. Xususan, xom ashyo ta'minotidagi importga bog'liqlik, ishlab chiqarishdagi texnologiyalar eskiligi, energiya samaradorligi pastligi, mahsulotlar sifatining xalqaro standartlarga to'liq javob bermasligi va mintaqalar kesimidagi notengliklar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda qurilish materiallari sanoati faqat an'anaviy qurilish ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanib qolmasdan, u milliy iqtisodiyotni tubdan modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish tarmoqlarini lokallashtirish, eksportni ko'paytirish va ish o'rinlari yaratishda muhim vositaga aylanishi kerak. Buning uchun esa quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish zarur:

1. Texnologik modernizatsiya va raqamlashtirishni jadallashtirish. Sanoat 4.0 tamoyillari asosida avtomatlashtirish, raqamli nazorat, mahsulot tarkibini optimallashtirish va "aqlli zavod" konsepsiyalarini joriy etish muhim. Bu tannarxni kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

2. Innovatsion mahsulot turlarini yo'lga qo'yish. Gazobeton, sendvich-panellar, modulli qurilish tizimlari kabi energiya tejamkor va ekologik toza materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish soha salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi.

3. Mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirish. Ishlab chiqarishni xom ashyo manbalari yaqinida joylashtirish, logistika zanjirlarini qisqartirish, transport xarajatlarini kamaytirish maqsadida klasterlashgan rivojlanish modeli joriy etilishi zarur.

4. Eksportni kengaytirish va xalqaro integratsiya. Qurilish materiallarini sertifikatsiyadan o'tkazish, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, tashqi bozor talablariga javob beradigan marketing va distributsiya strategiyalarini ishlab chiqish kerak.

5. Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish, loyihalar uchun moliyaviy kafolatlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlari orqali sohaga investitsiyaviy qiziqishni oshirish zarur.

6. Mutaxassislar tayyorlash va ilm-fan bilan integratsiya. Ishlab chiqarishni zamonaviy ilm asosida tashkil etish uchun sohaga ixtisoslashgan kadrlar, ilmiy tadqiqot institutlari va texnoparklar bilan uzviy hamkorlik yo'lga qo'yilishi shart.

Umuman olganda, qurilish materiallari sanoatining to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Davlat siyosati, xususiy tashabbuslar va ilmiy tahlillar bir-biri bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilsa, soha yaqin yillarda nafaqat milliy, balki mintaqaviy miqyosda ham raqobatbardosh darajaga chiqishi mumkin.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Qaror (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi ««O'zbekiston - 2030» strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-300-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6600390>

World Bank (2023). *Uzbekistan Country Economic Update – Navigating Challenges, Unlocking Potential*. Washington D.C.: World Bank Group.

Абдурахмонов Ш. (2019). Ўзбекистонда қурилиш материаллари саноатида ресурслардан самарали фойдаланиш муаммолари. “Иқтисод ва бошқарув” журналы, №3, 27–34-бетлар.

Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази (ИТИМ). (2023). Ўзбекистонда цемент саноатининг ҳолати ва истиқболлари бўйича таҳлилий ҳисобот. www.cer.uz

Исроилова З. (2021). Қурилиш материаллари экспорт салоҳияти ва уни ошириш омиллари. “Ўзбекистон иқтисодиёти” журналы, №1, 19–25-бетлар.

Каримова А. (2020). Қурилиш материаллари ишлаб чиқаришда технологик модернизация муаммолари. “Иқтисодий назария ва амалиёт” журналы, №4, 38–44-бетлар.

Курбонов Д. (2022). Саноатда рақамлаштириш: қурилиш материаллари ишлаб чиқаришда инновацион ечимлар. Тошкент молия институтининг илмий тўплами, №4, 55–62-бетлар.

Назаров Б. (2022). Ўзбекистонда қурилиш индустриясининг ривожланиш масалалари. Иқтисодий фанлар журналы, №2, 45–52-бетлар.

Раҳимов М. (2021). Қурилиш материаллари саноатида инвестиция муҳитини яхшилаш истиқболлари. Тошкент давлат иқтисодиёт университети илмий ишлар тўплами, №3, 63–70-бетлар.

Тошматова Л. (2021). Қурилиш материаллари саноатида экологик барқарорлик масалалари. “Иқтисодиёт ва табиат” журналы, №3, 13–20-бетлар.

Хожибоев У. (2020). Қурилиш материаллари саноатида кластер тизимини жорий этиш масалалари. “Саноат иқтисодиёти” илмий журналы, №2, 40–47-бетлар.